

TABIAT RESURSLARIGA NISBATAN MULK HUQUQINING MAZMUNI VA MOHIYATI

Fatulloyev Dilshod Po'lotovich

Tabiiy resurslar huquqi mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Kenjayev Rustam Haydarovich

Imiy rahbar

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining huquqiy asoslari, mazmuni va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Xususan, tabiiy resurslardan foydalanish huquqining cheklanishi, to'xtatilishi va bekor qilinishi bilan bog'liq qonunchilik normakari tahlil etilgan. Shuningdek, mulk huquqining subyektlari, ularning huquq va majburiyatlari, yer uchastkalarini xususiylashtirish jarayonlari, xorijiy shaxslarning egalik huquqlari va mavjud cheklovlar o'r ganilgan. Fuqarolik kodeksi, Prezident farmonlari va boshqa qonuniy asoslar asosida tabiiy boyliklar ustidan mulkchilik masalasining siyosiy, ijtimoiy va ekologik jihatlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *tabiiy resurslar, mulk huquqi, xususiylashtirish, yer munosabatlari, davlat mulki, ekologik xavfsizlik, O'zbekiston qonunchiligi, Fuqarolik kodeksi, yer uchastkasi*

Аннотация: В данной статье рассматриваются правовые основы, сущность и практические механизмы права собственности на природные ресурсы в Республике Узбекистан. В частности, проанализированы законодательные нормы, связанные с ограничением, приостановлением и прекращением права пользования природными ресурсами. Кроме того, изучены субъекты права собственности, их права и обязанности, процессы приватизации земельных участков, а также права собственности иностранных лиц и существующие ограничения. На основе Гражданского кодекса, указов Президента и других нормативно-правовых актов раскрываются политические, социальные и экологические аспекты собственности на природные богатства.

Ключевые слова: *природные ресурсы, право собственности, приватизация, земельные отношения, государственная собственность, экологическая безопасность, законодательство узбекистана, гражданский кодекс, земельный участок.*

Abstract: *This article analyzes the legal foundations, essence, and practical mechanisms of property rights to natural resources in the Republic of Uzbekistan. In particular, it examines the legal norms related to the restriction, suspension, and termination of the right to use natural resources. The article also explores the subjects of property rights, their rights and obligations, the process of land privatization, as well as the ownership rights of foreign entities and existing legal limitations. Based on the Civil Code, Presidential decrees, and other legislative acts, the paper highlights the political, social, and environmental aspects of ownership over natural wealth.*

Keywords: *natural resources, property rights, privatization, land relations, state ownership, environmental safety, uzbekistan legislation, civil code, land plot.*

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulk huquqi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning negizini tashkil etadi. Ayniqsa, tabiiy resurslarga nisbatan mulkchilik masalasi davlat siyosatining strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u mamlakat iqtisodiy xavfsizligi, ekologik barqarorlik va fuqarolarning farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tabiat resurslari – bu yer, suv, o‘rmon, foydali qazilmalar, atmosfera havosi kabi insoniyat yashashi va iqtisodiy faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan moddiy ne’matlardir. Ular ustidan mulk huquqining mazmuni va mohiyati esa ushbu resurslardan oqilona, samarali va adolatl foydalanish tamoyillariga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tabiiy resurslar ustidan mulkchilik huquqining aniq shakllarini belgilab bergan. Ayni paytda, amaliyotda ushbu huquqning realizatsiyasi turli muammolar, jumladan, huquqiy ziddiyatlar, ekologik tahdidlar va ijtimoiy adolatsizlik holatlari bilan yuzma-yuz kelmoqda. Mulk huquqining huquqiy mohiyatini chuqur anglash va uni to‘g‘ri talqin etish resurslardan samarali foydalan

Asosiy qism. Tabiiy resurslardan foydalanish huquqini sharhlash jarayonida bu huquqning chegaralanishi, vaqtincha to‘xtatilishi yoki bekor qilinishi masalalari alohida e’tibor talab etadi. Mazkur jihatlar O‘zbekiston Respublikasining bir qator amaldagi qonunchilik hujjatlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning 23-moddasi, «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 34-moddasi, «O‘rmon to‘g‘risida»gi qonunning 40-moddasi hamda Yer kodeksining 42-moddasida ushbu huquqni cheklash asoslari va tartiblari belgilangan.

Tabiiy resurslardan foydalanish huquqi mazmuni, ko‘pincha, tabiat ob’ektlarining bir toifadan boshqa toifaga o‘tishi, ayrim hududlarda foydalanish rejimining o‘zgarishi yoki ekologik xavfsizlikni ta’minalash zaruratidan kelib chiqib qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. Shunday o‘zgarishlar huquqiy tartibga solinib, resurslardan foydalanish huquqi bekor qilinishi yoki ma’lum muddatga to‘xtatib turilishi mumkin. Masalan, suvdan foydalanish huquqini to‘xtatish tartibi «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 37-moddasida, yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni tugatish esa Yer kodeksining 36-moddasida va boshqa normativ hujjatlarda ko‘rsatilgan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining amaliy mazmuni bevosita resurslardan foydalanuvchi subyektlarning huquq va majburiyatlariga bog‘liqdir. Bu subyektlar – yerdan foydalanuvchilar, ijharachilar, suv yoki o‘rmon resurslaridan foydalanuvchi jismoniy va yuridik shaxslar – o‘z huquqiy maqomidan kelib chiqib, belgilangan ekologik va huquqiy talablarga qat’iy rioya qilishlari lozim. Ularning huquq va burchlarini to‘g‘ri anglab yetishlari resurslardan samarali foydalanish, ularni muhofaza qilish va ekologik qonunchilikka amal qilish kafolatidir.

Bu masalalar qonunchilikda ham keng yoritilgan. Masalan, Yer kodeksining 39-42-moddalarida yer egalarining, foydalanuvchilarining, ijharachilarining va yer uchastkasi mulkdorlarining aniq huquqlari va majburiyatlar ko‘rsatilgan. Xuddi shuningdek, «O‘rmon to‘g‘risida»gi qonunning 21-moddasida doimiy o‘rmon foydalanuvchilarining, 22-moddasida esa vaqtincha foydalanuvchilarining huquqlari va burchlari aniq bayon etilgan. Shu orqali davlat resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish borasida yuridik mexanizmlarni aniq tartibga solgan.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini ko‘p ukladli tizimga o‘tkazish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu yondashuvdan ko‘zlangan asosiy maqsad – mayjud resurslardan ilmiy asoslangan, oqilona va puxta tahlil qilingan tarzda foydalanishdir. Demakki, iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda va ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda mulkchilikning har xil shakllari qo‘llanilayotgan bo‘lsa, ularning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va moddiy jihatlarini chuqur o‘rganish va hisobga olish nihoyatda muhimdir.

Bu holat tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqini belgilashda ham o‘z ifodasini topadi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 167-moddasida mamlakatda xususiy va ommaviy mulk shakllari mayjudligi rasman belgilangan. Shu bilan birga, tabiiy boyliklar va resurslar ustidan egalik asosan davlat ixtiyorida bo‘lib qolmoqda. Bu esa, tabiiy resurslarga xususiy mulkchilikni qo‘llash imkoniyati mayjudmi, degan savolni yuzaga keltiradi. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, tabiat boyliklarining har bir turiga xususiy mulk shaklini joriy etish mumkin emas, chunki bunday ob’ektlar ko‘pincha umumiy ijtimoiy, ekologik va strategik ahamiyat kasb etadi.

2021 yil 8 iyun sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni e’lon qilindi. Ushbu hujjatga muvofiq, 2021 yil 1 avgustdan boshlab yer uchastkalari xususiy sektorga mulk va ijara huquqlari asosida, davlat tashkilotlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga esa doimiy foydalanish asosida berilishi belgilab qo‘yildi.

Bundan tashqari, 2021 yil 15 noyabrda “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘RQ-728-soni qonun qabul qilindi. Ushbu qonun yer maydonlarini xususiylashtirish bilan bog‘liq tartib, shart-sharoitlar, subyektlar va ob’ektlar doirasini aniq belgilab berdi. Jumladan, qonunning 10-moddasida xususiylashtirish ob’ektlari sifatida quyidagilar ko‘rsatilgan:

- yuridik shaxslarga tadbirkorlik yoki shaharsozlik maqsadida ajratilgan yerlar;
- O‘zbekiston fuqarolariga yakka tartibda uy-joy qurish, uyni obodonlashtirish yoki tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun berilgan yerlar;
- xususiylashtirilishi lozim bo‘lgan davlat ko‘chmas mulklari joylashgan yerlar;
- foydalanilmayotgan, bo‘sh yer uchastkalari.

Mazkur qonunga ko‘ra, O‘zbekiston fuqarolari va mahalliy yuridik shaxslar xususiylashtirish subyektlari sifatida belgilangan. Ayni vaqtida, xorijiy fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, chet el yuridik tashkilotlari, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar hamda davlat idoralari va muassasalari bunday huquqdan foydalanish imkoniyatiga ega emas.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, chet el fuqarolari va xorijiy yuridik shaxslar ayrim holatlarda yer uchastkalariga egalik qilish huquqini qonuniy asosda qo‘lga kiritishlari mumkin. Xususan, xorijiy diplomatik vakolatxonalar, akkreditatsiyadan o‘tgan ommaviy axborot vositalari vakillari, xalqaro tashkilotlar, kompaniyalar va firmalarning doimiy vakolatxonalar xodimlari, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarda rasmiy ishlayotgan shaxslar, shuningdek, O‘zbekistonda doimiy yashash huquqiga ega bo‘lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda yer uchastkasi bilan birga joylashgan uy-joy binolarini qonuniy ravishda

sotib olishlari mumkin. Bunday huquq mulk shaklida amalga oshiriladi va tegishli tartibda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Fuqarolik kodeksining 213-215-moddalarida esa ommaviy mulk, respublika mulki va mahalliy (munitsipal) mulk turlari yuridik jihatdan belgilab qo'yilgan.

Xususan, 214-modda O'zbekiston Respublikasining mulk ob'ektlariga oid masalalarni o'z ichiga oladi.

Unga ko'ra, yer, yer osti boyliklari, suv manbalari, atmosferadagi havo, o'simliklar va hayvonot dunyosi, madaniy va tarixiy meros ob'ektlari, davlat moliyaviy zaxiralari, jumladan oltin va valyuta fondlari, byudjet mablag'lari, davlat idoralarining mol-mulkleri – bularning barchasi respublika mulki hisoblanadi.

Shuningdek, davlat mablag'lari evaziga tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta'lim markazlari, korxonalar, uskunalar, boshqa moddiy va nomoddiy aktivlar ham davlat mulki maqomiga ega bo'lishi mumkin.

Amaldagi huquqiy hujjatlar asosida ayrim davlat mulkiga tegishli ob'ektlar – masalan, yer uchastkalari, binolar, ishlab chiqarish inshootlari, korxonalar va ularning tarkibidagi texnika, uskunalar, shuningdek tabiiy xususiyatini yo'qotmaydigan (ya'ni iste'mol qilinmaydigan) ashyolar – qonuniy asosda ijaraga berilishi mumkin.

Bu holat Fuqarolik kodeksining 537-moddasida alohida qayd etilgan.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasida tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi muayyan konstitutsiyaviy va huquqiy me'yorlar asosida tartibga solinadi.

Yer, suv, yer osti boyliklari, o'rmon va boshqa ekologik ob'ektlar davlat mulki sifatida e'tirof etilgan bo'lib, ular jamiyatning umumiy boyligi hisoblanadi.

Bu resurslar ustidan mulk huquqining xususiy shaklda berilishi qat'iy cheklangan va faqat qonunchilikda belgilangan hollarda, ayniqsa, uy-joy bilan birgalikda, ayrim toifalardagi xorijiy fuqarolarga ruxsat etilishi mumkin.

Shu sababli, tabiiy boyliklar ustidan mulk huquqini shakllantirishda ijtimoiy manfaat, davlat xavfsizligi, ekologik barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish omillari bir butun yondashuvda ko'rib chiqilishi zarur.

Bu esa huquqiy me'yorlar asosida, amaliy va ilmiy yondashuvlarni uyg'unlashtirgan holda resurslardan foydalanish madaniyatini shakllantirishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2023. 48 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. - T.: Adolat, 2014. -496 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. "Xalq so'zi", 2022 yil 1 fevral.
4. Aydarov E.B. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. O'quv qo'llanma. - Chirchiq, 2020. - 128 b.
5. Mirzaeva N.A. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. - 166 b.

6. Ekoliya huquqi. Darslik // Bozorov U.B., Xolmo'minov J.T., Juraev Y.O., Usmonov M.B. va boshqalar. Mas'ul muharrir yu.f.d., J.T.Xolmo'minov. -T: TDYU, 2019. -B.12-45.

7. Ekoliya huquqi. Darslik. Usmonov M.B., Rustamboev Xolmuminov J.T. va boshq. Mas'ul muharrir: M.B.Usmonov. - Toshkent: TDYI, 2006.-B.29-44.